

OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

Xamdamova Marjona Adxam qizi

Qarshi davlat texnika universiteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Maqolada oziq-ovqat sanoati korxonalarining iqtisodiy samaradorligi va samaradorlikni baholash mexanizmlari haqida fikr yuritilgan bo'lib, unda korxonalarga o'z faoliyatini yaxshilash, raqobatbardoshlikni oshirish va barqaror rivojlanishga erishish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurligi ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar. oziq-ovqat, iqtisodiy samara, samaradorlik, samaradorlikni baholash, raqobatbardoshlik, mexanizm, oziq-ovqat xavfsizligi, maxsus texnologiyalar.

Аннотация. В статье рассматриваются механизмы оценки экономической эффективности и результативности деятельности предприятий пищевой промышленности, подчеркивается необходимость использования предприятиями современных технологий для улучшения результатов деятельности, повышения конкурентоспособности и достижения устойчивого развития.

Ключевые слова. продукты питания, экономическая эффективность, результативность, оценка эффективности, конкурентоспособность, механизм, безопасность пищевых продуктов, специальные технологии.

Abstract. The article examines the mechanisms for assessing the economic efficiency and performance of food industry enterprises, emphasizing the need for enterprises to use modern technologies to improve performance, increase competitiveness and achieve sustainable development.

Keywords. food products, economic efficiency, effectiveness, efficiency assessment, competitiveness, mechanism, food safety, special technologies.

Jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoati muhim tarkibiy qism bo'lib, butun dunyo bo'ylab iste'molchilarni ish o'rinlari va zarur mahsulotlar bilan ta'minlaydi. Ushbu sektor oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va turli xil va sifatli oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabni qondirish uchun juda muhimdir. Shubhasiz, oziq-ovqat sanoati global iqtisodiyotda muhim rol o'ynaydi. Bu eng ko'p tartibga solinadigan, subsidiya beriladigan va dinamik bozorlaridan biridir.

Dunyo aholisi o'sishda va shaharlashishda davom etar ekan, oziq-ovqat mahsulotlariga talab ham ortib bormoqda. Bu oziq-ovqat ishlab chiqaruvchilariga o'z bozorlarini kengaytirish va o'sib borayotgan va tobora xilma-xil iste'molchilar bazasi ehtiyojlarini qondiradigan yangi mahsulotlarni ishlab chiqish uchun katta imkoniyatlarni taqdim etadi.

Dunyo aholisining soni 2030 yilda 8,5 milliard kishi, 2050 yilga borib esa 9,7 milliard kishiga yetishi kutilmoqda. Hisobotda qayd etilishicha, yer sayyorasi aholisining

soni o'sishda davom etmoqda. Aholi soni ortishining deyarli yarmi Afrika mamlakatlariga to'g'ri keladi. Yaqin o'n yillar ichida aynan Afrika va Osiyo davlatlari aholisida sezilarli o'sish qayd etiladi. Shuningdek, Hindiston davlatining aholi soni bo'yicha Xitoyni quvib o'tishi kutilmoqda. Ushbu o'sish oziq-ovqat mahsulotlariga, xususan, Xitoy, Hindiston va Afrika kabi rivojlanayotgan bozorlarda talabning oshishiga olib keladi. Oziq-ovqat ishlab chiqarish sanoati uzoq muddatli muvaffaqiyatni ta'minlash uchun hal qilinishi kerak bo'lgan bir qator muammolarga duch keladi. Kompaniyalar ushbu qiyinchiliklarni yengib o'tishlari va yangi texnologiyalar va jarayonlarga sarmoya kiritish, malakali kadrlarni jalb qilish va saqlash, o'zgaruvchan qonunchilik va iste'molchilar tendentsiyalaridan oldinda bo'lish orqali raqobatbardosh va dinamik sektorda gullab-yashnashi mumkin.

Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoati korxonalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, bunga yaqqol misol tariqasida oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini joriy etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2024-yil 16-fevralda qabul qilingan PF-36-son Farmoniga muvofiq oziq-ovqat sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlash, mahsulotlar sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlarini xalqaro me'yorlar bilan uyg'unlashtirish maqsadida qaror va farmoyishlar ishlab chiqildi.

BMT ma'lumotlariga qaraganda 2050 yilda dunyo aholisi soni 10,6 milliarddan oshib ketadi. Bu holat oziq-ovqat, ayniqsa, go'sht mahsulotining tanqisligini keltirib chiqaradi. Gollandiyalik mutaxassislarning fikriga ko'ra, bunday sharoitda go'sht o'rniga turli xildagi xasharotlarni yeyish oddiy holatga aylanadi. Vageningen universiteti professori Marsel Dikke dunyoning turfa mamlakatlarida insonlar minglab hasharotlar turini iste'mol qilishini ta'kidlab, 2030 yilga borib turli hasharotlardan tayyorlangan taomlar g'arb oshxonasining bir qismiga aylanishi muqarrarligini bildirib o'tdi. Buni ham insoniyatning ekologiyaga yetkazgan zarari oqibati hosilasi, desak yanglishmagan bo'lamiz.

Ma'lumki, yer yuzasining umumiy sathi 510,2 million km²ga teng bo'lib, shundan 70 foizidan ortiqrog'i suvliklardan, qariyb 30 foizi quriqlikdan iborat. Ekin ekiladigan, boshqacharoq qilib aytganda, hosil olinadigan maydon esa 11 foizni, yaylovlar va o'tloqlar 23 foizni, o'rmon va butazorlar 31 foizni, odamlar yashaydigan hudud 2 foizni tashkil qiladi.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, yerning insoniyatni boqish imkoniyati katta. Ammo tabiatga yetkazilayotgan zarar yer fondi tuzilmasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Buning natijasida foydalanish mumkin bo'lgan hududlar hajmi kamayib, yaroqsiz maydonlar gektari ortib bormoqda. Shu kungacha yer yuzidagi 900 million gektar serhosil maydon cho'lga aylanib, foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib qoldi. Vaholanki, keyingi 50 yil davomida aholi soni uch baravarga ortib, oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talab qariyb 5 baravarga ko'paygan. BMTning hisob-kitobiga ko'ra, dunyo

aholisi yildan-yilga ko'paymoqda, shu sababli hozirgi vaqtda sayyoramiz 8,0 milliard odam yashayotgan bo'lsa, ularning soni 2050 yilga borib 10,6 milliardga yetadi.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligini yanada oshirish maqsadida 2013-2017 yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish davlat dasturini amalga oshirishdorasida 2016 yilda uzunligi 856,3 kilometrlik kollektor, 322,6 kilometr yopiq kollektor-drenaj tarmoqlari, 233 vertikal drenaj qudug'i, 12 ta meliorativ nasos stansiyasi, 357,4 km kanal, 70,8 km sug'orish latok tizimi barpo etildi va rekonstruksiya qilindi.

Meva-sabzavotlarni ishlab chiqarish va ularni saqlashga qaratilgan hajmining oshishi, mazkur mahsulotlarni saqlash uchun maxsus sovutgichlarni qurish va saqlash texnologiyasini takomillashtirishga mustahkam zamin yaratdi. Xususan, 2016 yilda 93,1 ming tonna meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash uchun 204 yangi sovutish kamerasi tashkil etildi hamda 12,7 ming tonna mahsulotni saqlaydigan 26 sovutish kamerasi modernizatsiya qilindi".⁶

Oziq-ovqat sanoati – iqtisodiyot tarmoqlarining oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaradigan sohasidir. Tarmoq tarkibida go'sht-sut, yog'-moy, baliq mahsulotlari, un-yorma, makaron, mevasabzavot konservalari, sut-yog', shakar, choy qadoqlash, qandolatchilik, non, uzum va shampän vinolari, spirt, aroq, tamaki, pivo, chanqovbosar ichimliklar, sovun va boshqa sanoat korxonalari mavjud. O'zbekiston zamonaviy oziq-ovqat sanoatiga ega. Uning tarkibida 3200 dan ortiq korxonalar bor. Bu soha, asosan, mahalliy xom ashyoni qayta ishlashga asoslangan. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida 200 dan ortiq mahsulot turi tayyorlanadi. Ilgari oziq-ovqat yig'ish, ov qilish yoki meva terish yo'li bilan amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi kunda asosan dehqonchilik, chorvachilik va baliq ovlash ko'nikmalaridan foydalangan holda aytiladi.

O'zbekistonda oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatining barqaror rivojlanmasligiga asosiy sabab aylanma mablag'larning yetishmasligi, xomashyolar tanqisligi, ularning faoliyatida bo'ladigan uzilishlar va boshqalardir. Shuningdek, respublikada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va samaradorligini oshirish bo'yicha bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilayotgan bo'lsada, hududiy xususiyatlarni inobatga olish hamda raqobat muhitini yaratuvchi korxonalar faoliyatiga qo'yilgan talablar, unga ajratilgan imtiyozlardan samarali foydalanish, aholining oziqovqat mahsulotlariga bo'lgan iste'mol darajasi va ishlab chiqarish hajmini iqtisodiy matematik modellar asosida chuqur o'rganishni talab etadi. Ushbu tahlillar asosida esa mazkur sanoat korxonalarining boshqaruv mexanizmini takomillashtirish va shu asosida raqobatga kirishish mumkin ekanligini ko'rishimiz mumkin⁷. Oziq-ovqat sanoati korxonalar faoliyatini rivojlantirish

⁶ SH.M.Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 fevralda bo'lib o'tgan majlisida ma'ruzasidan "2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning harakatlar strategiyasi" "Xalq so'zi" gazetasi, 08.02.2017

⁷ Mirzaev, A.T (2018). The level of use of tourist attractions in the regions and the factors affecting them, Economics and Innovative Technologies:

uchun uning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish xususiyatlari to'g'risida mulohazalar yuritilganda, birinchi navbatda har bir iqtisodiy faoliyat turida bo'lgani kabi tavakkalchilik bilan bog'liq faoliyat tushuniladi. Chunki umumiy ma'noda tavakkalchilik – tadbirkorlik faoliyatini yuritishda xavf-xatarga va tahlikaga borishdir.

Ko'pgina oziq-ovqatlar o'simlik (mevalar, sabzavotlar, dukkaklilar, don va urug'lar kabi) va hayvonlardan (masalan, go'sht, sut va uning mahsulotlari, tuxum va asal) tashkil etadi. Shu bilan birga, zamburug'lar va bakteriyalar kabi boshqa guruhlar (sirka, yogurt, pishloq va boshqalar) ham oziq-ovqat tayyorlash uchun ishlatiladi. Organik materiallardan tashqari, tuz va suv kabi mineral materiallar ham ishlatiladi.

Oziq-ovqatlar odatda quyidagi guruhlariga bo'linadi:

Sabzavotlar va mevalar (xun tolalari va turli vitaminlarga, ayniqsa S vitaminiga boy)

Go'sht va tuxum mahsulotlari (oqsil va temirga boy)

Sut va sut mahsulotlari (kalsiy, oqsil va B vitaminiga boy)

Kraxmal (non, kartoshka, don, guruch) (uglevodlar, vitamin B, tola, oqsil va minerallarga boy)

Yog'lar (lipidlarga, A vitaminiga, D vitaminiga (qaymoq va sariyog'), E vitamini va yog' kislotalariga boy)

Shakar (oddiy shakarga boy)

Ba'zi oziq-ovqatlarni hech qanday o'zgarishsiz, qayta ishlamasdan xom holda iste'mol qilish mumkin bo'lsa-da, mazali yoki yeyish mumkin bo'lishi uchun o'zgartirilishi kerak bo'lgan ovqatlar ham mavjud. Ushbu o'zgarishlarning eng oddiylaridan biri bu yuvish, maydalash va aralashtirishdir. Ba'zi ovqatlar ham pishirilishi yoki sovutilishi kerak. Ularga lazzatlanish va bezash uchun o'zgartirishlar kiritilishi mumkin, ularning ba'zilar turli madaniyatlarning urf-odatlariga borib taqaladi. Demak, yuqoridagi barcha jarayonlar sanoat tizimi bilan bog'liqdir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, oziq-ovqat sanoatida chuqur tashkiliy va iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. Ko'pgina sanoat korxonalari davlat tasarrufidan chiqarilib, ochiq turdagi aksiyadorlik birlashmalari va jamiyatlariga aylantirildi, ilgari tarmoq korxonalariga rahbarlik qilgan oziq-ovqat, go'sht-sut, don mahsulotlari va boshqa vazirliklar tugatilib, „O'z oziq-ovqatsanoat“ davlat-aksiyadorlik konserni (1993-yil 5-may, 1994-yil 26-sentabrdan „Oziq-ovqatsanoat“ va „Yog'-moy tamakisanoat“ uyushmalari), „O'z go'shtsanoat“ davlat-aksiyadorlik uyushmasi (1993-yil 6-aprel), „O'z don mahsulot“ davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi (1994-yil 22-aprel), „O'z mevasabzavot uzumsanoat“ davlat-aksiyadorlik uyushmasi (1994-yil 28-noyabrdan), „O'z baliq“ davlat-aksiyadorlik korporatsiyasi (1994), Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tarkibidagi „O'z parrandasanoat“ respublika ishlab chiqarish birlashmasi (1964), „O'z bek birlashuv“ tarkibidagi oziq-ovqat sanoati korxonalari ochiq turdagi aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. Aholi ehtiyojlarini respublikaning o'zida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan qondirish choralari ko'rilmogda. 2002-yilda oziq-ovqat sanoati korxonalarida go'sht - 147,4 ming tonna, mol yog'i - 1,9 ming tonna, sut mahsulotlari - 216,6 ming tonna, konservalar - 480,6 ming shartli banka, qandolatchilik

mahsulotlari - 61,1 ming tonna, o'simlik moyi - 222,2 ming tonna non va non-bulka mahsulotlari - 842,8 ming tonna, un - 1554,9 ming tonna, qadoqlangan choy - 5,3 ming tonna, tamaki - 10,6 ming tonna, xo'jalik sovuni - 41 ming tonna, qand-shakar - 217,2 ming tonna, makaron mahsulotlari - 74,6 ming tonna, vino-araq - 6134 ming dal, pivo - 7853 ming dal, chanqovbosar ichimliklar - 12680 ming dal va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, sanoat korxonalari faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy muhitining qisqacha tavsifi uning kerakli parametrlarini aniqlash uchun beriladi.

Har qanday milliy iqtisodiyotning rivojlanishi uning hududlarini muvozanatli va barqaror rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Mintaqalar va ularning hududlarini barqaror rivojlanishida esa sanoat tarmoqlarining ahamiyati yuqoridir. Chunki, sanoat tarmoqlari iqtisodiy o'sish sur'atini ta'minlash bilan bir qatorda, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va mahalliyashtirilishini rag'batlantirish orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini o'sishiga zamin yaratadi. Sanoat sohasida qazib olingan, ishlab chiqarishda yaratilgan barcha xomashyolarni qayta ishlash, ulardan turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlari takomillashadi. Dunyo tajribasida rivojlangan va yuqori o'sish sur'atlariga ega bo'lgan mamlakatlar amaliyoti ko'rsatishicha, ular muvaffaqiyatlari asosan sanoat tarmoqlarida, xususan qayta ishlovchi sanoat korxonalaridagi tuzilmaviy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan.

Sanoatning boshqa tarmoqlardan farqli jihati - yuqori darajadagi qo'shimcha qiymat yaratishidadir. Qo'shimcha qiymat - bu aniq turdagi mahsulotni yaratish, qayta ishlash, marketing faoliyatini olib borish va pirovard iste'molga chiqarilgunga qadar ishlab chiqarish jarayonining ketma-ketligidir.

Korxonalar innovatsion faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi yoki darajasi o'zgarishi ma'lum bir omillar ta'siri natijasida sodir bo'ladi. Korxona innovatsion faoliyatini boshqarishni obyektiv va har tomonlama tadqiq etish davomida, unga ta'sir o'tkazuvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish muammosi dolzarb va yetarlicha ishlab chiqilmagan bo'ladi.

Innovatsion faoliyat omili deganda, korxona innovatsion o'sishining jadalligi va tavsifiga ta'sir o'tkazuvchi shartlar, sabab va ko'rsatkichlarni tushunamiz. Bunda innovatsion jarayon, ko'plab omillarning o'zaro ta'siri natijasi sifatida maydonga chiqadi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, innovatsion faoliyatga ta'sir o'tkazuvchi omillarning tasnifi ayni vaqtda ishlab chiqilmagan. Ko'plab mualliflar korxonaning innovatsion faoliyatiga ta'sir o'tkazuvchi omillarga o'z e'tiborini qaratishgan. T.G.Filosofova o'z asarida, sanoat korxonalarida innovatsiyalarga to'sqinlik etuvchi quyidagi omillarni qayd etib o'tgan⁸:

⁸Т.Г. Философова, В.А. Быков. Конкуренция. Инновации. Конкурентоспособность: учеб.пособие для студентов. 2е изд., перераб.И доп. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. - 295 с.

- iqtisodiy - moliyaviy resurslar bilan kam ta'minlanganlik, davlat tomonidan kam moliyalashtirilish, innovatsiyalarni targ'ib qilishga yuqori sarf-harajatlar, iqtisodiy xavfning yuqori darajasi, innovatsiyalar qaytimlarining uzoq muddati;

- ishlab chiqarish - malakali kadrlar yetishmasligi, yangi texnologiyalar, sotish bozorlari to'g'risida zarur ma'lumotlarning yo'qligi, tashkilotning innovatsiyalarni tezda qabul qila olmasligi, boshqa tashkilotlar, korxonalar va ilmiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi yoki yo'qligi;

- boshqa omillar - innovatsion mahsulotga iste'molchilar tomonidan past narxdagi talab, innovatsion faoliyatda yetarlicha qonuniy va meyoriy-huquqiy asoslarning, tartibga solishning yo'qligi, davlat tomonidan innovatsion faoliyatni yetarlicha rag'batlantirilmasligi, sust rivojlangan innovatsion infratuzilma, texnologiya bozorida rivojlanishning yo'qligi.

Bizning fikrimizcha, keltirilgan tasniflar, korxona innovatsion faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning faqatgina kichik bir qismini qamrab olgan. Shuni ta'kidlash joizki, ilmiy adabiyotlarda innovatsion faoliyatga bevosita ta'sir o'tkazuvchi omillar aniqlangan emas.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 23-sentabrdagi 581-sonli "Oziq-ovqat sanoati sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining qabul qilinishi mamlakatda oziq-ovqat sanoatini rivojlantirishda bozor mexanizmlarini joriy qilish, sohada davlat ishtirokini qisqartirish va raqobat muhitini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Oziq-ovqat majmui o'z ichiga yana sakkizta tarmoqni oladi: don mahsulotlari, kartoshka mahsulotlari, qand-lavlasi, meva-sabzavot-konserva, uzum-sharbat, go'sht, sut, yog'-moy. Sanab o'tilgan 8 ta tarmoq yagona tashkiliy-huquqiy shaklga ega emas. Chunki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish bir necha o'zaro bog'liq sohalarning mustaqil korxonalari tomonidan amalga oshiriladi.

O'zbekiston oziq-ovqat tarmog'ida don, go'sht va sut, meva-sabzavot, uzum-sharbat ishlab chiqarish tarmoqlariga yetakchilik qiladi. Ushbu tarmoqlarga jami ishlab chiqarilgan mahsulotning 50 % i, asosiy ishlab chiqarish fondlari 20 % i, ishchi-xizmatchilarning 40 % i to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. SH.M.Mirziyoyevning Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 7 fevralda bo'lib o'tgan majlisida ma'ruzasidan "2017–2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning harakatlar strategiyasi" "Xalq so'zi" gazetasi, 08.02.2017

2. A.T. Mirzaev. The level of use of tourist attractions in the regions and the factors affecting them, Economics and Innovative Technologies: (2018).

3. Т.Г. Философова, В.А. Быков. Конкуренция. Инновации. Конкурентоспособность: учеб.пособие для студентов. 2е изд., перераб. И доп. -М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2008. - 295 с.